

“BRB-plus” referral dasturi doirasidagi yutuqli aksiya QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. “BRB-plus” referal dasturi doirasida yutuqli aksiyalarni o‘tkazish Qoidalar (keyingi o‘rinlarda – “Qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonunlari “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom” (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ning ichki qoidalariga asosan ishlab chiqilgan. Mazkur Qoidalar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”)ning “BRB” Mobil ilovasi orqali yangi mijoz bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan kiritilgan referal kod egalarini va yangi mijozlarni rag‘batlantirish maqsadida ularga ballar belgilash yo‘li bilan yutuqli aksiyalar o‘tkazish hamda “BRB” Mobil ilovasida mavjud xizmatlardan faol foydalanib kelayotgan foydalanuvchilarni qo‘shimcha rag‘batlantirish qoidalarini belgilaydi.

2. Mazkur Qoidalarda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

referal kod – “BRB” mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxslarga beriladigan raqamlar yoki harflar ketma-ketligidan tashkil topgan kod hisoblanadi. Bunda “BRB” mobil ilovasidan foydalanuvchi har bir mijozning o‘zini referal kodi bo‘ladi;

foydalanuvchi – “BRB” mobil ilovasidan ro‘yxatdan o‘tgan mijoz;

ishtirokchi – “BRB” mobil ilovasidan ro‘yxatdan o‘tib, aksiya shartlarida belgilangan amaliyotlarni bajargan mijoz (18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar);

ball – bu aksiya doirasida foydalanuvchi tomonidan bajarilgan harakatlar (masalan, mobil ilovaga kirish, boshqa foydalanuvchini jalb qilish, mobil ilova orqali to‘lovlar amalga oshirish, bank xizmatlaridan va hokazo)ga qarab bank tomonidan hisoblab boriladigan ball tizimidir. Foydalanuvchining mobil ilovasidan amalga oshirgan har bir harakati uchun alohida ballar belgilanishi mumkin;

Aksiya – bu bank tomonidan BRB mobil ilovasi foydalanuvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan, ma’lum muddat va shartlar asosida tashkil etilgan rag‘batlantiruvchi tadbir bo‘lib, unda foydalanuvchilar sovg‘alar, bonuslar, chegirmalar yoki boshqa mukofotlarni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

TOP-reyting jadvali – “BRB” mobil ilovasining “BRB-plus” referal dasturi sahifasida aksiya o‘tkazish bosqichlarida eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchilarning ro‘yxatini aks ettiruvchi jadval;

imkon – super yutuq o‘yinida ishtirok etish uchun ishtirokchilarning to‘plagan har 10 balli uchun beriladigan huquq.

3. Bankning “BRB-plus” referal dasturi doirasida aksiyalarni o‘tkazish vaqti va tartibi bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan belgilanadi.

4. Yutuqli aksiyalarni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar bankning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Aksiya 2025-yil 23-oktabrdan 2026-yil 28-fevralga qadar davom etadi hamda unda sovrinlar 2 bosqich 6 tur davomida quyidagi jadvalga muvofiq o‘ynaladi:

Bosqich	Tur	Muddati	Yutuq turi	Yutuq fondi, so‘m
1-bosqich	1-tur	23.10.2025 – 03.11.2025	15 ta pullik yutuq	12 000 000
	2-tur	04.11.2025 – 30.11.2025	15 ta pullik yutuq	12 000 000
	3-tur	01.12.2025 – 31.12.2025	15 ta pullik yutuq 1 ta xorijga tur	47 000 000
2-bosqich	4-tur	01.01.2026 – 25.01.2026	15 ta pullik yutuq	12 000 000
	5-tur	26.01.2026 – 15.02.2026	15 ta pullik yutuq	12 000 000
	6-tur	16.02.2026 – 27.02.2026	15 ta pullik yutuq 1 ta xorijga tur	47 000 000

Aksiyaning jami yutuq fondi – 142 000 000 so‘mni tashkil etadi.

II. Aksiya ishtirokchilari va yutuq fondi

6. Aksiyada “BRB” mobil ilovasidan ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchi qatnashish imkoniga ega bo‘ladi.

7. Bank xodimlari aksiyada qatnashishi taqiqlanadi va ularning aksiya davrida yaratgan imkoniyatlari hisobga olinmaydi.

8. Bank tomonidan aksiya g‘oliblarini aniqlash davrida ishtirokchi “BRB” mobil ilovasini o‘chirgan bo‘lsa, uning imkoniyatlari hisobga olinmaydi.

9. “BRB” mobil ilovasida aksiyada qatnashish uchun alohida bo‘linma yaratilib, unda foydalanuvchi o‘zining to‘plagan ballarini ko‘rishi, referal kodini boshqalar bilan ulashishi, uni jalb qilgan foydalanuvchining referal kodini faollashtirishi, TOP-reyting jadvalini kuzatib borishi va aksiyaga doir boshqa ma’lumotlar bilan tanishib chiqishi mumkin.

10. Ishtirokchilar uchun ballar quyidagi faolliklar uchun beriladi hamda ushbu ro‘yxat mobil ilovadagi aksiya sahifasida yangi xizmat turlari uchun rag‘batlantirish mexanizmi qo‘shilishiga qarab yangilanib boriladi:

Amaliyot turi	Ball miqdori
Referal kodi orqali yangi foydalanuvchi qo‘shish	10
Referal kodni faollashtirish	10

11. Aksiyaning yutuq fondi pullik yutuqlar va super yutuqdan iborat. Pullik yutuqlar har turda bir marta, super yutuq har bir bosqichning oxirida o‘ynaladi.

12. Bir ishtirokchi Aksiyaning har bir turida faqatgina bitta yutuq g‘olibi bo‘lishi mumkin.

13. Aksiya g‘oliblari har bir bosqich natijalariga ko‘ra shakllanadigan TOP-reytingga muvofiq belgilanadi.

14. Aksiyaning pullik yutuq g‘oliblari har bir tur natijalariga ko‘ra shakllanadigan TOP-reytingga muvofiq quyidagi tartibda aniqlanadi:

#	TOP reytingdagi o'rn (tur natijalariga ko'ra)	Sovrin miqdori
1	1-o'rin	3 000 000 so'm
2	2-o'rin	1 000 000 so'm
3	3-o'rin	1 000 000 so'm
4	4-o'rin	1 000 000 so'm
5	5-o'rin	1 000 000 so'm
6	Mazkur turning barcha ishtirokchilari orasida	500 000 so'm
7		500 000 so'm
8		500 000 so'm
9		500 000 so'm
10		500 000 so'm
11		500 000 so'm
12		500 000 so'm
13		500 000 so'm
14		500 000 so'm
15		500 000 so'm

15. Aksiyaning super yutuq sovrini – ikki kishiga xorijga safar uchun mo'ljallangan 35 000 000 so'm miqdoridagi sayohat sertifikatidan iborat. Super yutuq har bir bosqichning natijalariga ko'ra 100 balldan ko'p ball to'plagan mijozlar orasida o'ynaladi.

16. Mijozning har 10 ball ekvivalentidagi balliga 1 ta super yutuqda go'lib bo'lish imkoniyati beriladi, ishtirokchi qancha ko'p ballga ega bo'lsa, superyutuq yutish imkoniyati shuncha baland bo'ladi. Super yutuqni 1-bosqichda yutgan foydalanuvchining imkoniyatlari 2-bosqich super yutuq sovrini o'yinida hisobga olinmaydi

III. Aksiyani o'tkazish va g'oliblarni aniqlash tartibi

17. Aksiyaning har bir turi natijasiga ko'ra aksiya ishtirokchilari ro'yxati shakllantirilib, ushbu ro'yxatda tartib raqam, ishtirokchining telefon raqami, ishtirokchi familiya, ism va sharifi, ballar hamda imkonlar soni mavjud bo'ladi. Bank aksiyani samarali tashkil etish maqsadida ro'yxat strukturasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

18. Aksiyani o'tkazishga mas'ul Komissiya tomonidan g'olibni aniqlash "Random.org" dasturi orqali onlayn rejimda amalga oshiriladi. G'oliblarni banking ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali jonli efirda aniqlanadi.

19. Bank aksiyani o'tkazish qoidalariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo'lib, bu haqidagi ma'lumotni o'zgartirilgan qoidalar kuchga kirishidan 10 (o'n) bank ish kuni oldin Bankning rasmiy (www.brb.uz) veb-sayti orqali e'lon qilinadi.

20. G'oliblar to'g'risidagi ma'lumot Bankning rasmiy veb-sayti, "BRB" mobil ilovasi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

21. Bank aksiya g'oliblari aniqlangan kundan 5 (besh) bank ish kuni davomida, pullik yutuqlarni ishtirokchilarning "BRB" mobil ilovasidagi BRB kartasiga tushirib beriladi hamda superyutuq g'olibi bilan esa "BRB" mobil ilovasidan ro'yxatdan o'tgan vaqtda ko'rsatgan

telefon raqami orqali bog‘lanadi va sovrinni olib ketish bo‘yicha barcha ma’lumotlarni yetkazadi.

22. Quydagi hollarda super yutuq g‘olibi sovrinni olish huquqini yo‘qotadi va yutuq aksiyaning keyingi turlarida o‘ynash uchun zaxiraga olinadi:

g‘oliblar aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida bank g‘olib bo‘lgan ishtirokchiga “BRB” mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan raqam orqali rasmiy ish vaqtida jami 5 (besh) marta qo‘ng‘iroq qilish natijasida bog‘lanishning imkoni bo‘lmaganda;

g‘olib ishtirokchi bankka so‘ralgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra taqdim etmagan hollarda.

23. Yutuqlarni olish huquqi g‘olib ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxsga o‘tkazilmaydi.

24. Aksiya ishtirokchilari aksiya sovrinlarini topshirish davri mobaynida kirish qo‘ng‘iroqlari va xabarlarining qabul qilish imkoni bo‘lishi uchun javobgar hisoblanadi.

25. G‘olib e‘lon qilingandan so‘ng yutuqlarni 30 (o‘ttiz) bank ish kuni ichida olib ketish lozim bo‘ladi. Yutuqlar 30 (o‘ttiz) bank ish kuni ichida olib ketilmagan taqdirda Bank tomonidan mazkur qoidalarining 19-bandiga muvofiq sovrin zahiraga olinadi.

IV. Javobgarlikni cheklash

26. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

ishtirokchi tomonidan aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrinlarni olish bilan bog‘liq vazifalarni bajarmaganliklari (vaqtida bajarmaganliklari);

ishtirokchining yutuqli o‘yin o‘tkazilishi qoidalari, shuningdek, aksiya o‘tkazilishi natijalari bilan tanishib chiqmaganligi;

bankdan ishtirokchilarga yuborilgan va ishtirokchilar tomonidan bankka yuborilgan xabar, qo‘ng‘iroq va/yoki elektron xabarlarning yetib kelmasligi, shu jumladan, aksiya davomida foydalaniladigan pochta xizmati, aloqa tashkiloti aybiga ko‘ra texnik nosozlik sabab va/yoki internet va/yoki aloqa kanallaridagi nosozlik va/yoki firibgarlik natijasidagi holatlar;

ishtirokchi tomonidan Sovrinni olish uchun kerakli bo‘lgan hujjat va/yoki guvohnomalarni yetkazmaslik (vaqtida yetkazmaslik);

aksiyani o‘tkazish va sovrinni olish uchun kerak bo‘ladigan kontaktlar va/yoki boshqa ma’lumotlarning ishtirokchi tomonidan to‘liq bo‘lmagan holda taqdim etilishi yoki umuman taqdim etilmasligi;

mobil aloqa operatorlari, internet-provayderlariga aloqador bo‘lgan istalgan turdagi, yutuqli o‘yin tashkilotchisiga aloqasi bo‘lmagan texnik nosozliklar, uzilishlar, profilaktik ishlar va boshqalar;

aksiya ishtirokchisi tomonidan aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrinni olishda keltirilgan istalgan turdagi xarajatlar va/yoki yo‘qotishlar;

oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) yuzaga kelganda, shu jumladan, favqulodda vaziyat va/yoki sanitar-epidemiologik cheklovlar kiritilishi.

V. Shaxsiy ma’lumotlar

27. “BRB” mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan va aksiyada qatnashishga rozilik berib, ishtirokchi o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini bank va u tomonidan ushbu vakolat taqdim etilgan shaxslar tomonidan qayta ishlanishiga hamda ulardan aksiyani o‘tkazish, reklama maqsadida foydalanish uchun o‘z roziligini bildirgan hisoblanadi.

VI. Boshqa shartlar

28. Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlaydi:

aksiya o'tkazilishi qoidalar va shartlari bilan to'liq tanishib chiqishni;

o'zining tasviri bo'lgan fotomateriallar, intervyu va uning ishtirokidagi boshqa materiallarni bankni reklama qilish yoki aksiyani anons qilish maqsadlarida ishtirokchiga to'lov amalga oshirmagan holda bank tomonidan foydalanilishiga rozilik bildirishi. Ishtirokchi bankka aksiyani reklama va/yoki anons qilish, bankni reklama qilish maqsadlarida ommaviy chiqishni e'fira berish va shunga teng bo'lgan mualliflik huquqlarini beradi;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari hamda yutuqlar soliq to'lovchining boshqa daromadlariga kiradi va g'olib shaxs yashash joyiga ko'ra davlat soliq inspeksiyasi majburiy deklaratsiyasiga kiritiladi. Ishtirokchi g'olib bo'lgan taqdirda sovrinni olish bilan bog'liq barcha soliqlarni to'lash vazifasini o'z zimmasiga oladi;

bank ishtirokchiga oid bo'lgan ma'lumotlarni OAV, internet sahifasi, internet tarmog'iga joylashdan avval ishtirokchi bilan oldindan kelishmasdan o'zgartirishi mumkin.

29. Ishtirokchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid amaliyotlar, firibgarlik (frod) alomatlari yoki Aksiya shartlaridan g'ayriqonuniy foydalanish (jumladan, bir shaxs nomidan bir nechta akkaunt ochish, avtomatlashtirilgan vositalar — bot/skriptlardan foydalanish, begona shaxs ma'lumotlaridan ruxsatsiz foydalanish, shubhali tranzaksiyalarni amalga oshirish) aniqlangan taqdirda, Bank ishtirokchining Aksiyadagi barcha imkoniyatlarini hisobga olmaslik hamda uni yutuqli o'yinda qatnashishdan chetlashtirish huquqiga ega.

30. Aksiyada ishtirok etib, barcha ishtirokchilar amaldagi rasmiy qoidalar bilan diqqat bilan tanishib chiqqanliklari va rasmiy qoidalar shartlari bilan to'liq, hech qanday cheklov yoki istisnalarsiz roziliklarini bildiradilar.

VII. Aksiya o'tkazish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi

31. Aksiyani keng yoritish uchun reklama materiallari tayyorlanadi hamda mazkur aksiya o'tkazilishi va natijalari to'g'risida ma'lumotlar Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalari orqali yoritiladi.

32. Aksiya shartlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar Bank veb-saytida (www.brb.uz) joylashtiriladi. Mijoz bankning 1254, (+998 78) 150-00-55 telefon raqamlari orqali qo'shimcha ma'lumotlar olishi mumkin.

VIII. Yakuniy qoidalar

33. Mazkur Qoidalar tasdiqlangandan kundan e'tiboran amaliyotga tatbiq qilinadi.

34. Ushbu Qoidalarda ko'zda tutilmagan holatlar amaldagi qonun hujjatlari hamda bankning boshqa ichki qoidalar asosida tartibga solinadi.